

**ALEKSANDR ARKADEVICH FAYNBERG IJODIDA SEVGI VA INSONIY
TUYG'ULAR****Nurmaxmatova Firuza Rasulovna***O'zbekiston Davlat Jahon tillari**Universiteti Ingliz filologiyasi**fakulteti 2-bosqich talabasi**feruzanurmaxmatova2005@gmail.com*

Annotatsiya: O'zbek adabiyotida o'ziga xos ovoz va o'ringa ega ijodkorlardan biri Aleksandr Arkadevich Faynbergdir. Uning she'riyatidan hayotiylik, samimiylilik, ruhiy teranlik, sevgi kabi insoniylikning eng nozik fazilatlari nafasi ufurib turadi. Faynberg ijodiyotida sevgi va boshqa insoniy hissiyotlar markaziy mavzulardan bo'lib, ular faqatgina kechinmalarni ifodalabgina qolmay, falsafiy umumlashma darajasigacha ko'tariladi. Shoir sevgi orqali insonning ruhiy olamini, iztirob-u quvonchini, hayot mazmun-mohiyatini ochib berishga harakat qiladi.

Kalit so'zlar: sevgi, iztirob, qayg'u, saqoqat, qalb go'zalligi, ayriliq, umid, ichki kechinmalar, lirika.

Har bir millat adabiyoti qalblarni larzaga keltiruvchi, insonning eng latif tuyg'ularini ifodalab, o'quvchi qalbiga mahorat bilan yetkazib beruvchi she'riyatga ega. She'riyatdagi eng ko'p satrlarga muhrlanuvchi, ba'zan she'riyat gultoji deb e'tirof etiluvchi mavzulardan biri bu-sevgi. Odamzod tug'ilibdiki, muhabbat, sadoqat iztirob va umid tuyg'ular inson hayoting ajralmas qismiga aylangan. Faynberg she'rlaridagi sevgi va insoniy tuyg'ular shunchaki go'zallikni ulug'labgina qolmay, kitobxon ma'naviy dunyosini boyitadi, uni ezgulik tomon chorlaydi.

Faynberg lirikasida sevgi oddiy romantik tuyg'u emas, balki insoniylik mezoni sifatida ko'rinadi. Uning ko'plab asarlarida sevgi inson hayot manzilini belgilab beruvchi, uning kelajagini hal qiluvchi kuchdir. She'rlarida sevgi, mehr-muhabbat kabi hislarni bayon etarkan, bu orqali qalb go'zalligini ulug'laydi va mana shu tengsiz go'zallik qayg'u-iztirob bo'ronlarida toblanib, o'z qiymatini oshirib borishiga ishora qiladi.

Ijodkorning "Aprelgacha, alvido" she'ri she'riyatimizdagi lirizm va insoniy tuyg'ularning ajoyib namunalaridan biri sanaladi. Shoir bu she'rda sevgining vaqt bilan beayov kurash, ayriliq, visolning ziddiyatli tuyg'ularini ramziy obrazlar orqali gavdalandiradi.

Aprelgacha, alvido.

Ochilgan qo'llaring-visol.

Uyum-uyun qor uchqunlari

Sevgiling kaftidan bir umrga
Uchib ketayotir.

Bu yerda sevgi tabiat obrazlari bilan uyg'unlikni kasb etgan holatda yoritiladi."ochilgan qo'llaring – visol"-mehr va yaqinlikni tasvirlagan bo'lsa,"qor uchqunlari" vaqtning o'tkinchiligi timsolidir.Shoir sevgi go'zalligini qadrlaydi hamda uning tutqichbermas beqaror xis ekanligiga ishora beradi.She'rning davomiga quloq solaylik-a:

Seni eslab... unutamam ham...

Ko'z o'ngimdan ketmaysan xurram-

Bargsiz daraxtzorda,quyosh nurida

Sevgidan baxtiyor.

Yelkamdagi yopinchig'imda

Yarqiraydi yanvar quyoshi.

Bu ayriliq ishq edi,asli.

Lablarda muzlagan bo'salar yoshi.

Aprelgacha,alvido

Shoir bu she'rda sevgi va ayriliqning ikki qirrasini-eslash va unutish,yaqinlik va ayriliq obrazlari orqali tasvirlaydi."Bargsiz daraxtlar","yanvar qo'shig'i" kabi tabiat obrazlari sovuqlik'bo'shliq,vaqt o'tishini bilidirsam,"sevgining baxtiyor"jumlasini bu qahraton ichida ham sevgi va iliqlik yashashini bildiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Faynberg A.A she'rlar to'plami.-Toshkent,1980.
2. Faynberg A.A.Tanlangan asarlar.-Toshkent:G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti,1987.
3. Karimov N. O'zbek she'riyatida lirizm va masalalar.-Toshkent:Fan,2004.
4. Ziyo.uz-"Aleksandr Faynberg Hayoti va Ijodi" maqolasi
5. O'zbek adabiyoti tarixi.-Toshkent:Fan,2005.